



## HEROES OF THE SECOND WORLD WAR: THE GLORIOUS PATH OF THE PEOPLE OF NAMANGAN

**Bunyod Khasanov**

*Doctor of Philosophy (PhD) in History*

*University of Business and Science*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Namangan region, Health care, surgeon, epidemiologist, traumatologist, short-term courses, outpatient clinic, paramedic, rash, sweating, malaria, measles, diphtheria, disinfection chambers.

**Received:** 02.12.25

**Accepted:** 03.12.2

**Published:** 04.12.25

**Abstract:** The article examines the functioning of the healthcare system of the Namangan region during the Second World War, the spread of rashes and malaria among the population of the republic and the region, the issue of training personnel in medical institutions of the Uzbek SSR, training of medical personnel in short-term courses, as well as the population's need for medicines, for the population of the region the activities of the built hospitals are covered based on the analysis of primary documents.

## IKKINCHI JAHON URUSHI QAHRAMONLARI: NAMANGANLIK LARNING SHONLI YO'LI

**Bunyod Xasanov**

*Tarix fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*University of Business and Science*

*Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Namangan viloyati, urush yillari, Sovet Ittifoqi Qahramoni, "Shuhrat" ordeni, jasorat, g'alaba, mardlik, xotira, qahramonlar nomi, vatan himoyachilari.

**Annatsiya:** Maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbekistonliklar frontning oldingi qatorida turganligi, fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga o'zbekistonliklar qatori namanganlik jangchilar ham salmoqli hissa qo'shganligi, urush tarixida namanganliklarning o'rni, jang maydonlarida mardlarcha jang qilgan namanganlik jangchilarning jasorati va fidoyiligi yoritilgan. Shuningdek Sovet Ittifoqi Qahramoni

unvoniga sazovor bo'lgan namanganliklar, ularning urushdagi qahramonlik yo'li, xalqimiz tinchligi uchun ko'rsatgan jasorati jasorati haqida ma'lumotlar birlamchi hujjatlar tahlili asosida yoritilgan.

## ГЕРОИ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ: СЛАВНЫЙ ПУТЬ НАМАНГАНЦЕВ

**Бунёд Хасанов**

*Доктор философии (PhD) по истории*

*Университет бизнеса и науки*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Наманганская область, здравоохранение, хирург, эпидемиолог, травматолог, краткосрочные курсы, амбулатория, фельдшер, сыпь, потливость, малярия, корь, дифтерия, дезкамеры.

**Аннотация:** В статье рассмотрено функционирование системы здравоохранения Наманганской области в годы Второй мировой войны, распространение сыпи и малярии среди населения республики и области, вопрос подготовки кадров в медицинских учреждениях Узбекской ССР, подготовка медицинских кадров на краткосрочных курсах, а также потребность населения в лекарствах, для населения региона освещается деятельность построенных больниц на основе анализа первичных документов.

**Kirish.** Ikkinchi jahon urushi boshlangan yillarda Germaniyaning harbiy-texnikaviy qudrati qanchalik kuchli bo'lmasin Sovet Ittifoqi armiyasi dushman hujumlarini to'xtata oldi hamda okkupatsiya qilingan hududlarni birin-ketin ozod qila boshladi. Qizil Armiya nafaqat Sovet Ittifoqiga qarashli hududlarni, balki, fashistlar tomonidan egallangan Yevropaning katta qismini ozod qilishda ishtirok etdi. Sovet armiyasi bunday yutuqlarga front ortidagi aholining katta moddiy va ma'naviy yordami, hamda jangchilarning ko'rsatgan qahramonligi, jasurligi va vatanparvarligi tufayli erishganligini alohida ta'kidlash lozim.

Urush yillarida o'zbekistonliklar frontning oldingi qatorida turdi. O'zbekiston aholisining minglab farzandlari – piyoda askar, to'pchi, uchuvchi, tankchi, snayper, razvedkachi, aloqachi va sapyor sifatida yurtning shon-shuhrati, ozodligi uchun jang qildi.

O'zbekistonda tuzilgan diviziya askarlari Stalingrad, Kursk va Moskva ostonasidagi janglarda qatnashdi. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, Ikkinchi jahon urushi yillarida 214000 nafar o'zbekistonlik askar va ofitserlar Sovet Ittifoqining turli jangovar orden va medallari bilan taqdirlangan[1]. Jumladan, Sovet Ittifoqi Qahramoni 301 nafar, uchala darajali "Shuhrat" ordenining kavalerlari 70 dan ortiq, "Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun" 109208,

“Pragani ozod qilganlik uchun” 6846, “Varshavani ozod qilganlik uchun” medali bilan 5439, “Kenigsbergni qo‘lga kiritganlik uchun” 5140, “Kavkaz mudofaasi uchun” 2974, “Stalingrad mudofaasi uchun” 2738, “Budapeshtni olganlik uchun” 2430, “Venani olganlik uchun” 2000, “Moskva mudofaasi uchun” 1753, “Berlinni qo‘lga kiritgani uchun” 1707, “Leningrad mudofaasi uchun” 1382, “Belgradni ozod qilish uchun” 664, “Sevastopol mudofaasi uchun” 124, “Odessa mudofaasi uchun” 84 va “Vatan urushi partizani” medallari bilan 75 nafar o‘zbekistonliklar taqdirlandi[2].

Fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga o‘zbekistonliklar qatori namanganlik jangchilar ham salmoqli hissa qo‘shdi. Xususan, dushmanga qarshi olib borilgan janglarda ko‘rsatgan jasorati uchun 23 ming nafar namanganliklar jangovar orden va medallar bilan mukofotlandi[3].

Ikkinchi jahon urushi yillarida ko‘rsatgan jasorati uchun namanganliklardan 10 nafar jangchilar – Soli Adashev, Nabijon Mingboyev, Abdusattor Rahimov, Fayzullo Yuldashev, Lutfulla Sibagatullin, Grigoriy Yefimenko, Yuriy Doljanskiy, Boris Ivanovskiy, Mixail Akimov, Mixail Fayozovlar (Mamasharif) oliy mukofot – Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo‘ldi. Xolmat Jalolov, G‘ani Valiyev, Sait-Nabi Abdurahmonov, Aleksey Tokarev singari 4 nafar namanganlik jangchilar uchala darajadagi “Slava” ordeni kavaleri bo‘lib[4] urush tarixida o‘z nomlarini qoldirdilar. Tadqiqotchi R.Ummatov viloyat bo‘yicha qahramon unvoniga munosib ko‘rilgan jangchilarning soni 13 nafar deb ko‘rsatib, yuqorida sanab o‘tilgan jangchilar qatorida Ahmedov Mixail Vladimirovich, Gladkov Aleksandr Vasilevi-ch va Kuleshov Vladimir Kuzmichlarning nomlarini keltirgan[5]. Ularning urush yillaridagi faoliyati tarixi quyida batafsil bayon qilingan.

Abdusattor Raximov 1920-yil 20-yanvarda Namangan shahrida ishchi oilasida tug‘ilgan. Xizmatga chaqirilgunga qadar yog‘ zavodida faoliyat ko‘rsatib 1941-yilda frontga safarbar etilgan. 1943-yilning 30-sentyabrdan 1-oktyabrga o‘tar kechasi Voronej frontining 38-armiyasi 340-o‘qchilar diviziyasida 1144-o‘qchilar polkining kichik serjanti A.Raximov Kiyevning Vishgorod tumanidagi Borki qishlog‘i yaqinida Dnepr daryosini birinchilardan bo‘lib kechib o‘tadi. U plasdarmni ushlab turish va kengaytirish uchun bo‘lgan janglarda faollik ko‘rsatib, dushmanga katta zarar yetkazadi[6]. A.Rahimovning urush yillaridagi matonatidan ilhomlangan harbiy jurnalist, katta leytenant Telkanov o‘z maqolasida: “A.Rahimov urush davrida yuzlab fashistni yer tishlatdi. Dushmanning o‘nlarcha pulemyot, minomyot, zambarak va avtomashinalarini yakson qildi”[7] – deb yozgan edi. A.Rahimov Moskva, Kiyev, Xarkov va Vinnitsani dushmandan ozod qilish uchun bo‘lgan janglarda ham faol qatnashdi. Shuningdek, Korsun-Shevchenkovskiy tumanidagi janglarda bo‘lib, Ruminiya, Vengriya va Chexoslovakiya uchun bo‘lgan janglarda ishtirok etdi va dushmanga katta talofat yetkazdi. Dnepr daryosi bo‘yida, Ukraina poytaxti Kiyev uchun olib borilgan janglarda ko‘rsatgan jasorati uchun unga Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni

berildi. Uning ko'ragida jangovar "Qizil Bayroq" ordeni, birinchi va ikkinchi darajali "Vatan urushi" ordenlari yoniga Lenin ordeni bilan "Oltin Yulduz" medali qo'shildi[8]. Bundan tashqari Belaya Serkov ostonalarida bo'lgan janglarda "Birinchi darajali Vatan urushi ordeni" bilan, Klyuj yonidagi janglarda ko'rsatgan mardligi va matonati uchun "Ikkinchi darajali Vatan urushi" ordeni bilan mukofotlandi[9]. A.Raximov uch marta yarador bo'lishiga qaramay janglarni davom ettirgan va to'rt orden, uch medal hamda 1944-yil 10-yanvar SSSR Oliy Soveti Prezidiumining farmoniga ko'ra Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni bilan taqdirlandi.

Yana bir Sovet Ittifoqi Qahramoni Solijon Adashev 1923-yil Namangan viloyati Norin tumanida tug'ilgan, urush boshlangunga qadar o'qituvchilik qildi. Harbiy qismga kelishi bilan u razvedka guruhi komandiri qilib tayinlandi. 1942-yildan Qizil Armiya tarkibida dastlab 2-Belorussiya frontidagi 49-armiya 42-o'qchi diviziyasi 459-o'qchi polk bo'limi qo'mondoni bo'lgan. 1944-yil 23-iyun kuni dushman hujumi vaqtida serjant S.Adashev qo'mondonligi ostida 459-o'qchi polk bo'limi 20 nafar dushmanni yo'q qildi[13]. Chernevka qishlog'ida Solijon Adashev va uning safdoshlari qo'shimcha kuchlar kelguniga qadar 14 soat davomida dushman tanklari va motorli piyodalari bilan jang qildilar[14]. Birinchilardan bo'lib Dnepr daryosini kechib o'tdi va unga 1945-yil 24-martda qahramon unvoni berildi. Bundan tashqari, Lenin ordeni, "Qizil Bayroq", "1-daraja Vatan urushi" ordenlari va boshqa medallar bilan mukofotlandi[15].

O'zbek xalqi farzandlaridan yana biri Nabijon Mingboyevdir. U 1918-yil 12-fevralda Namanganda tug'ilgan. 1941-yil armiya safiga xizmatga chaqirilib, 1943-yildan boshlab frontga jalb etildi[16]. 1944-yil iyuniga qadar kichik serjant N.Mingboyev Leningrad frontining 21-armiyasi 381-o'qchilar diviziyasi 1261-o'qchilar polkida guruh komandiri bo'ldi. Shuningdek u Leningrad viloyatini ozod qilishda jonbozlik ko'rsatdi. 1944-yil 10-iyunda Vsevolojk tumanidagi Lembolovo qishlog'i yaqinida bo'lib o'tgan jangda N.Mingboyev vzvod komandirligini o'z zimmasiga olib, dushmanni uloqtirib tashlaydi va jarohat olishiga qaramay jangni davom ettiradi. SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining 1945-yil 24-martdagi Farmoni bilan "Frontda nemis-fashist bosqinchilariga qarshi kurashda qo'mondonlikning jangovar topshiriqlarni namunali bajarganligi, ko'rsatgan jasorati va qahramonligi uchun" kichik serjant Nabijon Mingboyev "Sovet Ittifoqi Qahramoni" unvoni bilan taqdirlandi[17]. Urushdan keyin u Namanganda yashab, turli xo'jalik lavozimlarida faoliyat olib bordi.

Sovet Ittifoqi qahramonlaridan yana biri Fayzullo Yuldashev 1912-yil 2-sentyabrda Qozog'istonning Turkiston shahrida dehqon oilasida tug'ilgan. Samarqand pedagogika texnikumi va Toshkent o'qituvchilar institutini tamomlab, o'qituvchi, maktab direktori bo'lib ishladi. Qizil Armiya safiga 1942-yil iyun oyida Qozog'iston SSR Yankobod okrugi harbiy komissariati tomonidan chaqirilgan. 1942-yil oktyabrdan Ikkinchi jahon urushida qatnashdi[18]. Voronej frontidagi 38-armiya, 180-o'qchi diviziyasi 42-o'qchi polki guruh komandiri vazifasini bajardi.

Katta serjant F.Yuldashev 1943-yil 27-sentyabrga o'tar kechasi birinchi desantchilar guruhi tarkibida Ukraina poytaxtidan shimolroqda joylashgan Kiyev viloyati Vishgorod tumanining Noviy Petrovskiy qishlog'i hududidan Dnepr daryosining o'ng qirg'og'iga kechib o'tdi. F.Yuldashev o'zining bo'linmasi bilan plasdarmni qo'lga kiritish va ushlab turish vazifasini bajarishda jasorat va qat'iylik ko'rsatadi. Turli razvedkalarda ishtirok etib, dushman haqida qimmatli ma'lumotlarni to'playdi. SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining 1943-yil 29-oktyabrdagi farmoni bilan Fayzullo Yuldashev Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni bilan taqdirlandi[19]. Urushdan so'ng turli davlat lavozimlarida ishlagan F.Yo'ldoshev umrining so'nggi yillarida Namangan tumani Irvadon qishlog'ida yashab, 1991-yilda vafot etgan va shu qishloqqa dafn etilgan.

Sovet Ittifoqi qahramoni Boris Andreyevich Ivanovskiy 1922-yilda Rossiyaning Tomsk shahrida ishchilar oilasida tug'ilgan bo'lsa-da, Namangan shahridagi Chexov ko'chasida yashab, mehnat qilgan. B.Ivanovskiy Toshkent industrial institutida o'qib, 1933-1941-yillarda Namangan shahridagi 3/4-paxta zavodida muhandis bo'lib ishlagan va shu yerdan frontga safarbar etildi. 1941-yil avgustda armiya safiga chaqirildi. 1942-yilda Toshkent harbiy piyoda maktabini tugatib, shu yilning kuzida Stalingrad frontiga yetib keldi. Fashistlarning Stalingraddagi qo'shinini qurshovga olishda qatnashdi. 1943-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan Janubiy frontning 51-armiyasi tarkibida vuzvod komandiri leytenant B.Ivanovskiy Rostov viloyatidagi ko'plab aholi punktlarini ozod qiladi[21]. "Chervoniy" qishlog'ida bo'lib o'tgan jangda gvardiya kapitani B.Ivanovskiy granata bilan nemislarning "Tigr" rusumli tank ostiga o'zini tashlab, o'z joni evaziga uni to'xtatadi. Kapitan B.Ivanovskiyning bu jasorati qo'l ostidagi jangchilarni dushmanga hujum qilishga undaydi. O'sha kuni batalyon vazifani muvaffaqiyatli bajaradi. Melitopol ostonasidagi hujum davom etadi va 1943-yil 23-oktyabrda shahar ozod qilinadi[22]. 109-o'qchi diviziyaning komandiri Dunayev B.Ivanovskiyning mukofot varaqasiga Sovet Ittifoqi Qahramoni degan nomga munosibdir deb yozib qo'ydi. SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining 1943-yil 1-noyabrdagi farmoni bilan unga o'limidan so'ng qahramon unvoni beriladi[23]. Boris Andreyevich Ivanovskiy Voroshilovkaning Staraya Balka qishlog'iga dafn etilgan[24].

Lutfulla Sibayevich Sibagatullin (1912-1978-yy). Rossiya Federatsiyasining Perm viloyati Uinskoye tumanida tavallud topgan. 1938-yilda armiyaga chaqirildi. Harbiy xizmatga qadar Namangan viloyati Norin tumanida o'qituvchi, xalq maorifi bo'limida ishladi. 1943-yil 22-sentyabrda Desna va Pripyat daryolarini kechib o'tishda jasorat ko'rsatdi. 1943-yil 16-oktyabrda unga "Qahramon" unvoni berildi[25].

Mixail (Mamasharif) G'iyosovich Fayozov (1925-1990-yy). Qozog'istonning Avliyo-Ota qo'rg'onida tug'ilgan. 1943-yilda Qizil armiya safiga Qozog'istonning Jambul tumani harbiy komissarligi tomonidan chaqirilgan. M.Fayozov Qozog'istonda tug'ilgan bo'lishiga qaramay

uning kelib chiqishi Chust tumanidan bo'lgan. Millati o'zbek. Uning bobosi Mirfayoz hoji sovetlarning quloqlashtirish siyosati natijasida Qozog'iston hududiga ko'chirib yuborilgan. Shuning uchun Mamasharif Fayozov o'sha yerda tug'ilgan. Ukrain millatiga mansub quroldosh do'sti Mixail Oleynikning vafotidan so'ng o'z ismini Mixail deb o'zgartirishni so'rab qo'mondonlikka murojaat qilgan[26]. U bu bilan halok bo'lgan do'stining ismini barhayot yashashiga sabab bo'ldi.

1943-yil avgust oyidan M.Fayozov 175-gvardiya o'qchi polkining vzvod komandiri bo'ldi 1945-yil 23-yanvar kuni Oder daryosini kechib o'tishdagi janglarda jonbozlik ko'rsatdi. Rota komandirligini o'z zimmasiga olib, Polsha hududidagi Debern aholi punkti yaqinidagi daryoning chap sohiliga bo'linmasi bilan birgalikda birinchilardan bo'lib o'tdi. M.Fayozov boshchiligidagi rota plasdarmni egallab olib, dushmanning bir necha hujumini qaytaradi va dushman qo'shilmasining shtabini tor-mor qildi. Gvardiya leytenanti M.Fayozov hukumatning 1945-yil 27-iyundagi farmoni bilan "Fashist bosqinchilariga qarshi kurashish mobaynida qo'mondonlikning jangovar topshiriqlarini namunali bajarganligi, hamda ko'rsatgan jasorati va qahramonligi uchun" Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni bilan taqdirlandi[27]. G'alabadan so'ng Mixail Fayozov ota yurti Chustga qaytib turli rahbarlik vazifalarida ishlab, 1990-yilda vafot etdi.

Yefimenko Romanovich Grigoriy (1919-1984-yy). 1919-yil 20-noyabrda Rossiyaning Orenburg viloyati Akbulak tumanida tug'ilgan. 1939-yilda qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash maktabini tugatdi, so'ngra jamoa xo'jaligida kombaynchi bo'lib ishladi[28]. Urushga Namanganning Pop tumanidan chaqirilib, 1944-yil iyul oyiga qadar 1-Belorussiya fronti 69-armiyasi 41-o'qchi diviziya 244-o'qchi polkida vzvod komandiri sifatida xizmat qilgan. 1945-yil 24-martda unga "Qahramon" unvoni bilan taqdirlangan. U 1984-yilda Polshada vafot etgan[29].

Yuriy Moiseyevich Doljanskiy (1923-1943-yy.). Ukrainaning Krivoy Rog shahrida tug'ilgan. Millati yahudiy. Uning ota-onasi evakuatsiya chog'ida Rossiyadan ko'chirilib, urush yillarida Chortoq shahrida istiqomat qilgan. Urushga Namangan shahridan safarbar etilgan katta leytenant Yu.Doljanskiy 6-gvardiyachi o'qchi diviziya 10-o'qchi polk komissari sifatida urushda qurbon bo'lgan[30]. Desna, Dnepr, Pripyat daryolaridan o'tishda qahramonlik ko'rsatgani uchun o'limidan so'ng SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1943-yil 16-oktyabrdagi farmoni bilan Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi[31].

Mixail Pavlovich Akimov (1925-1983-yy). 1925-yilda Moskva viloyatining Suponevo qishlog'ida tug'ilgan. Millati rus. Urush yillarida kichik serjant unvonida 54-gvardiyachi o'qchi diviziya, 125-polkda to'p navodkachisi (to'pni o'qlab mo'ljalga oluvchi) vazifasini bajargan. Harbiy xizmatga Yangiqo'rg'on tumanidan chaqirilgan. 1944-yil 25-sentyabrda unga "Qahramon" unvoni berilgan.

**Xulosa.** Namangan viloyatining barcha tumanlaridan Ikkinchi jahon urushi frontlarida qahramonlik, jasorat namunalarini ko'rsatib, Moskva mudofaasi, Leningrad qamali, Stalingrad, Kursk, Dnepr, Kavkaz, Sevastopol, Odessa uchun bo'lgan janglarda, Yevropani fashistlardan ozod etishdagi hamda militaristik Yaponiyaga qarshi urushda, umuman olganda, Ikkinchi jahon urushida barcha katta-kichik darajadagi harbiy harakatlarda nafaqat oddiy jangchi, balki, harbiy tuzilmalar komandiri sifatida ishtirok etib, turli darajadagi unvonlar bilan taqdirlandilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Саидов А. Парк Победы: философия мужества и стойкости. – Ташкент: TASVIR, 2021. – С. 35.

2. Участие узбекистанцев в боевых действиях на фронтах ВОВ // LIRL: <https://ia-centr.ru/experts/iats-mgu/uchastie-uzbekistantsev-v-boevykh-deystviyakh-na-frontakh-vov/> (Murojaat qilingan sana: 12.05.2024).

3. Саидов А. Парк Победы: философия мужества и стойкости. – Ташкент: TASVIR, 2021. – С. 342-345.

4. Саидов А. Парк Победы: философия мужества и стойкости. – Ташкент: TASVIR, 2021. – С. 338-341.

5. Умматов Р. Ғазнаи Намангон / Энциклопедия (Уч жилдли) 1-китоб / Олтин одамлар. – Тошкент: Шарқ, 2022. – Б. 289-291.

6. Березняк Н.Г. Герои Советского Союза узбекистанцы. (Сборник). – Ташкент: Узбекистан, 1984. – С. 256.

7. Мардлик мангулик. – Тошкент: Ўзбекистон, 1970. – Б. 108.

8. Мардлик мангулик. – Тошкент: Ўзбекистон, 1970. – Б. 108.

9. Namangan VDA, 796-fond, 1-ro'uxat, 111-yig'ma jild, 60-varaq.

10. Namangan VDA, 796-fond, 1-ro'uxat, 111-yig'ma jild, 50-varaq.

11. Namangan VDA, Chust tuman filiali 222-fond, 1-ro'uxat, 128-yig'ma jild, devoriy suratdan.

12. Namangan VDA, 796-fond, 1-ro'uxat, 43-yig'ma jild, devoriy suratdan.

13. Березняк Н.Г. Герои Советского Союза узбекистанцы. (Сборник). – Ташкент: Узбекистан, 1984. – С. 164.

14. Джураев Т.Д. Воины Узбекистана на фронтах отечественной войны. – Ташкент: Наука, 1965. – С. 46.

15. Жасоратнома: (Справочник) // (тузувчи-муаллиф Н.Г. Березняк Н.Г. Тахрир хайъати: Р.Ғ. Ғуломов Р.Ғ. ва бошқалар). – Тошкент: Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси, 1990. – Б. 74-76.

16. Герои Советского Союза: Краткий биографический словарь в двух томах. Т. 1 /Абаев – Любичев / Пред. ред. Коллегии. Шкадов И.Н. – Москва: Воениздат, 1987. – С. 81.
17. Адхам Раҳмат. Ватан ботирлари. – Тошкент: Ёш гвардиячи, 1963. – Б. 94.
18. Герои Советского Союза: Краткий биографический словарь в двух томах. Т. 1 /Абаев - Любичев/ Пред. ред. Коллегии. Шкадов И.Н. – Москва: Воениздат, 1987. – С. 620.
19. O‘z MA, MK – 1780, 2-qism, devoriy surat.
20. Умматов Р. Ғазнаи Намангон / Энциклопедия (Уч жилдли) 1-китоб / Олтин одамлар. – Тошкент: Шарқ, 2022. – Б. 290.
21. Березняк Н.Г. Герои Советского Союза узбекистанцы. (Сборник). – Ташкент: Узбекистан, 1984. – С. 186.
22. Казакова А.С. Ими гордится родина. (подвиги Героев советского союза - узбекистанцев). – Ташкент: государственное издательство Узбекской ССР, 1961. – С. 61.
23. Мардлик мангулик. – Тошкент: Ўзбекистон, 1975. – Б. 201.
24. Сиддиқов Р. Гвардиячи қахрамон. – Тошкент: Ёш гвардия, 1974. – Б. 21.
25. Герои Советского Союза: Краткий биографический словарь в двух томах. Т.2 /Абаев – Любичев / Пред. ред. коллегии. Шкадов И.Н. – Москва: Воениздат, 1987. – С. 451.
26. Sultonov X. “Окор”dagi ahdlashuv // Inson va qonun. 2024-yil 7-may.
27. Ражабов О. Дўстининг исми билан яшаган қахрамон. // Наманган ҳақиқати. 2024 йил 17 июль.
28. LIRL: warheroes.uz<http://war-heroes.uz/bizning-qahramonlarimiz-2/sovet-ittifoqi-qahramonlari/yefimenko-grigoriy-romanovich/> (Murojaat qilingan sana: 26.08.2023).
29. Умматов Р. Ғазнаи Намангон / Энциклопедия (Уч жилдли) 1-китоб / Олтин одамлар. – Тошкент: “Шарқ”, 2022. – Б. 289.
30. Герои Советского Союза: Краткий биографический словарь в двух томах. Т.1 /Абаев - Любичев/ Пред. ред. коллегии Шкадов И.Н. – Москва: Воениздат, 1987. – С. 438.  
Умматов Р. Ғазнаи Намангон / Энциклопедия (Уч жилдли) 1-китоб / Олтин одамлар. – Тошкент: “Шарқ”, 2022. – Б. 289.
31. Жўраев Т.Ж. Ватаннинг содиқ фарзандлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1964. – Б. 115.